

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRILIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"  
O'zDJTU rektori v.v.b.

B.Kulmatov

2023 yil "22" iyun

60320100 – JURNALISTIKA: XALQARO JURNALISTIKA  
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA IKKINCHI MUTAXASSISLIK  
UCHUN KASBIY IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

Toshkent – 2023

**Tuzuvchilar:**  
A.Karimov – O'zDJTU media va kommunikatsiya fakulteti dekani,  
filologiya fanlari doktori, dotsent  
A.Dadaxonov – Yohannes Gutenberg universiteti (Mayns) doktoranti

**Taqrizchilar:**  
R.Abdusattorov - O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
H.Saidov – “Boshlag'ich ta'lif” jurnali Bosh muharriri, filologiya  
fanlari doktori

## Kirish

**60320100 – Jurnalistika: xalqaro jurnalistika** ta’lim yo’nalishida ijodiy imtihon o’tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur soha talab etadigan ijodiy qobiliyat, xorijiy tillarni o’rganish va bilishga qiziqishi, mustaqil fikrlash mahorati, xalqaro mavzularning yoritilishi, xalqaro miqyosda axborot uzatuvchi Xalqaro OAV tizimining shakllanishi va ko’rinishi, xalqaro axborot bozori va uning qonuniyatları, OAV faoliyatining iqtisodiy assoslari, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlar, muassislik va boshqaruv, media-biznes va unda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqadigan zamonaviy tendensiyalar, “Dunyoning axboriy xaritası” “raqamlı tengsizlik” yangi tushunchalar mazmunini anglashi va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir.

Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyat;
- Xalqaro OAV tizimi haqida muayyan darajada qiziqish va dunyoqarashining mavjudligi;
- Zamonaviy tendensiyalar kabi muhim nazariy mavzularni bilishi
- Jahon OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV sohasini bilish darjasи;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- O’z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Xorijiy tillarni o’rganishga qiziqish darjasи va chet tilida o’z fikrini og’zaki bayon qila olish ko’nikmasi;
- xalqaro jurnalistikadagi asosiy tushunchalarni bilishi va boshqalar.

## Suhbat jarayonining tuzilishi

Suhbat quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- muloqot abituriyentning hozirgi kundagi muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma’naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalarga hamda jurnalistik ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo’ladi. Suhbatmavzulari oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi;
- qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o’rinbosari imtihon(suhbat)boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga suhbat mavzulari solingen konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;
- suhbat o’tkazilishi uchun 10 daqiqa astronomik soat vaqt belgilanadi;
- suhbatda quyidagi yo’nalishlardan kelib chiqib savollarberiladi: ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

## Og’zaki suhbat davomida so‘rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Siz nega aynan jurnalistlik kasbini tanladdingiz? Bu tanlov kimning ta’sirida bo’ldi?
2. Jurnalistik faoliyatni qanday tasavvur qilasiz?
3. Ommaviy axborot vositalari tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Qaysi OAV turi (matbuot nashrlari, televideniye, radio, axborot agentliklari, internet saytlari) da faoliyat yuritishga ko’proq qiziqasiz? Buning sababi nimada?
5. Milliy OAV va xalqaro OAV o’rtasida qanday farqli jihatlar bor?
6. Nega aynan xalqaro jurnalistika ta’lim yo’nalishida tahsil olmoqchisiz?

7. Jurnalistika ta'lim йўналиши талабаси журналист этикасини қачон эгаллаган бўлиши керак?
8. Boshqa mutaxassislikda ta'lim olayotgan talabalarga nisbatan jurnalistika ixtisosligi talabalarning (talabalik mas'uliyatini bajaraish jarayonidagi) farqi nimada?
9. Xalqaro jurnalistika mutaxassiligi bo'yicha tahlil oladigan talabaning oldiga qanday vazifa va mas'uliyatlar qo'yiladi?
10. Xalqaro jurnalist faoliyatiga qanday talablar qo'yilishi kerak?
11. Sizni jurnalistikada nima qiziqtiradi? Qachondan beri jurnalistika sohasiga qiziqasiz?
12. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
13. O'zbekistonning keyingi yillardagi rivojlanishida jurnalistikaning o'mini qanday baholaysiz?
14. Siyosat bilan jurnalistika o'zaro bog'liqligini qanday baholaysiz?
15. Nima uchun jurnalistikaga nisbatan "To'rtinchi hokinoyat" ta'rifi beriladi?
16. "Erkin va mas'uliyatli jurnalistika" deganda Siz nimani tushunasiz?
17. Siz gazeta o'qiysizmi? Asosan qaysi gazetalarni o'qib turasiz?
18. Qaysi jurnallarni bilasiz? Jurnal bilan gazetaning farqini aytib bera olasizmi?
19. Qaysi radiokanalarni bilasiz? Radio va televideniyening farqini misollar bilan tushuntirib bering.
20. Sizga qaysi OAV ko'proq yoqadi: gazeta, radio, televideniyemi yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
21. Radiojournalistlardan kimlarni taniysiz?
22. Televideniyening boshqa OAV turlaridan farqli tomonlari nimada? Qaysi telekanallar faoliyatini kuzatib borasiz?
23. Telejournalistlardan kimlarni taniysiz?
24. Internet nima? Internetda yangiliklar tarqatishning qanday imkoniyatlari bor?
25. Internet sayti nima? Internetdagi qaysi saytlarni bilasiz?
26. Blogerlik va blogsoha nima? Qaysi blogerlarni bilasiz?
27. Xalqaro jurnalist bo'lismiga tayyormisiz? Xalqaro jurnalist qanday faoliyat bilan shug'ullanishi haqida qanday tasavvurga egasiz?
28. Bugungi yoshlarga qanday axborot va yangiliklar ko'proq yoqadi? Javobingizni aniq misollar orqali tushuntirib bering
29. Reklamalarni kim tayyorlaydi? OAVda uzatiladigan reklamalarni qanday baholaysiz?
30. Axborot yig'ish deganda nimani tushunasiz? Axborot yig'ishda jurnalist nimalarga e'tibor qaratishi kerak?
31. Jurnalistik axborot o'zi nima?
32. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo'lsa, nima qilasiz?
33. Reportaj nima? Reportaj janrini ta'riflab bering.
34. Intervyu nima? Intervyuda kimning fikri o'rganiladi?
35. Maqola nima? U qanday yoziladi? Siz maqola yozganmisiz?
36. Faktlarni yig'ish chog'ida jurnalist faoliyatini chegaralash mumkinmi? Siz bunga nima deysiz?
37. Siz jurnalist faoliyatini mashaqqatli kasb deb eshitganmisiz? Mashaqqatli kasbni qanday tasavvur qilasiz?
38. Jurnalistikada Sizni nima ko'proq qiziqtiradi: teleekranga chiqishmi, ko'nglingizdagi gaplarni yozishmi, xalq dardini o'rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?
39. "Jurnalistning noni qattiq" degan ibora bor. Bunga munosabatingiz qanday?

40. Sizning nazaringizda jurnalist kun tartibi qanday rejalashtirilishi kerak?
41. Sizning nazaringizda jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
42. Bugungi kunda Toshkent shahrida qaysi universitetlarda jurnalist kadrlarni tayyorlovchi yo‘nalishlar bor? Siz nega aynan shu universitetni tanladingiz?
43. TV orqali uzatiladigan reportajning radio orqali uzatiladigan reportajdan farqi va o‘ziga xosligi nimada? Sizningcha, qaysi biri to’liqroq ma’lumot beradi? Javobingizni aniq misollar orqali tushuntirib bering
44. Jurnalist ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanishi mumkin?
45. Mashhur davlat arbobidan intervyu olish imkoniyati tug‘ilsa qanday 5 ta asosiy savolni bergen bo‘lar edingiz? Agar shunday imkoniyat berilsa aynan qaysi mashhur davlat arboblaridan qaysi mavzuda intervyu olgan bo‘lar edingiz?
46. Jurnalistikada vaqtning ahamiyati qanday?
47. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa nimalarni olgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
48. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
49. Televideniyeda jonli efir deganda nimani tushunasiz?
50. Televideniyeda jonli efir orqali chiqishning ahamiyati nimada?
51. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
52. O‘zbekistonda jurnalistlar, muxbirlardan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e’tiboringizni tortadi, yoqadi?
53. Jurnalistikada qat’iyan man etiladigan amallar nima?
54. Xalqaro jurnalistikaning bugungi davlat taraqqiyotida qanday o‘rin tutadi deb o‘ylaysiz?
55. Xalqaro jurnalist axborot tayyorlash chog’ida nimalarga ko‘-ptroq e’tibor qaratishi kerak?
56. “Jurnalistni oyoqlari boqadi” iborasini izohlang?
57. O‘zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko‘rasiz?
58. Qaysi xorijiy OAV ni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni jalg qiladi? Ularning faoliyatida nimalarni o‘zgartirishni tavsiya qilgan bo‘lar edingiz?
59. Sizga biror OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishdi deylik. Qaysi turdag'i va yo‘nalishdagi OAV ni tanlaysiz?
60. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt saflaysiz va qanday maqsadlarda?
61. Kelajakda jurnalist sifatida faoliyat olib bora boshladingiz deylik, bir muddat o‘tib sizga oylik maosh bera olmaydigan vaziyatga tushib qolishdi. Siz ishslashda davom etasizmi?
62. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?
63. “Kim?”, “nima?”, “qayerda?”, “qachon?”, “nima uchun?” va “qanday qilib?” savollariga javoblarni jamlashtirgan yangilik-sarlavha o‘ylab toping.
64. Xalqaro jurnalistikadagi zamonaviy jarayonlarga tushuncha bering?
65. Media-biznes deganda nima tushuniladi?
66. Jahon mass-medialarining tiziminining voqyelik sifatida ko‘rinishi tasavvurinngiz?
67. Dunyoning yetakchi telekanallari va xususiyatlari sanab bering?
68. Internet zamonaviy OAV turi sifatida aks etishiga izoh bering?
69. Elektron jurnalistika bozoridagi yangi shakllar?
70. Dunyoning yetakchi telekanallari va radiokannallarni sanang va ularning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatib bering?
71. Internet OAVlarinining tasniflanish mezonlarini aytib bering?
72. O‘zbekistonning xususiy OAV tizimlarini sanab bering?

Imtihon natijalari ikki kundan so‘ng e’lon qilinadi.

**Amaliy ishni baholash mezonlari**

**Ajratilgan ball miqdori – 0 – 100 ball**

| <b>Nº</b>    | <b>Mezonlar</b>  | <b>Ajratilgan ball</b> |
|--------------|--|------------------------|
| 1.           | Ijodkorlik qobiliyati  | 20 ball                |
| 2.           | Xalqaro jurnalistika sohasida ishlash jarayonlaridan bilimga egaligi   | 20 ball                |
| 3.           | Fikr-mulohazalarini erkin, aniq ifodalay olishi                        | 20 ball                |
| 4.           | Kreativ fikrlash darajasi  | 20 ball                |
| 5.           | Jurnalistik faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorligi | 20 ball                |
| <b>JAMI:</b> |  | <b>100 ball</b>        |

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O‘bekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) (Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son). // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) 15.06.2023.
2. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) 07.02.2017.
3. 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // <https://lex.uz/docs/5841063>, 28.01.2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T., “O‘zbekiston”. 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”. 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so‘zi” gazetasi 2022-yil 27-iyun.
8. Do’stmuhammad X. Jurnalist bo‘lmochimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlod, 2001.
9. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
10. Jabborov Sh. O‘zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.